

UCHINCHI RENESSANS VA YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTDA
AXBOROT – KUTUBXONA XIZMATINI TASHKIL QILISH

Mannonov Yusup Otaxonovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Kutubxona - axborot faoliyati fakulteti

Kutubxona-axborot faoliyati kafedrasi katta o'qituvchisi.

Mannonovyusuf@gmail.com. Mob. Tel: 93 562 26 28

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165496>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Renessans haqida tushuncha, Renessansning davrlari, shu davrlarda yashab o'tgan mumtoz adabiyotimiz vakillari, Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga qoshgan hissalari, uchinchi renessans poydevorini yaratish g'oyalari, davlatimiz rahbariyati olib boraytgan davlat siyosati va Yangi O'zbekistonda Axborot – kutubxona xizmatini tashkil qilish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlari: Renessans, Uchinchi Renessans, Yangi O'zbekiston, fenomen.

**ОРГАНИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В
РАЗВИТИИ ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация. В данной статье рассмотрено понимание Возрождения, периодов Возрождения, представителей нашей классической литературы, живших в эти периоды, Нового времени. Вклад в развитие Узбекистана, идеи создания фундамента третьего возрождения, государственная политика, проводимая руководством нашей страны и Нового. Показаны пути организации информационно-библиотечного обслуживания в Узбекистане.

Ключевые слова: Возрождение, Третье Возрождение, Новый Узбекистан, феномен.

**THE THIRD RENAISSANCE AND THE ORGANIZATION OF INFORMATION AND
LIBRARY SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN**

Abstract. This article presents the concept of the Renaissance, the periods of the Renaissance, the representatives of our classical literature who lived during these periods, their contributions to the development of New Uzbekistan, the ideas of creating the foundation of the Third Renaissance, the state policy pursued by the leadership of our state, and the ways of organizing Information and Library Services in New Uzbekistan.

Keywords: Renaissance, Third Renaissance, New Uzbekistan, phenomenon.

Renessans so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, fransuzcha renaissayce - o‘zbek tiliga tarjimasi uyg‘onish degan ma’noni beradi. Har bir davrning o‘ziga xos tub yangilashlari va o‘zgarishlari bo‘lib, dunyo sivilizasiyasiga, taraqqiyotiga turki bo‘ladi. Ana shu taraqqiyotning o‘ziga xos rivojlanishi “Renessans” deb ataladi.[1.B.5.] Bizning xalqimiz o‘z tarixida ikki bor Renassansi yaratgan bo‘lib, birinchi davri ilk o‘rta asrlarga, ikkinchi davri esa sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davri hisoblanadi. Bu davrlar insoniyat tarixida va taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bugungi kunda yurtimizda uchinchi renessans poydevori yaratilmoqda.

Yevropada renessans davri XIII asrdan boshlangan bo‘lib, uch asosiy bochqichni ya’ni, ilk bochqich-XIV asrlarga to‘g‘i kelib, butun Yevropani emas, balki uning eng rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan. Uyg‘onish davri Renassansi Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy, G‘arbiy Yevropada yuz bergen alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri hisoblanadi. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’naviy yuksalishga nisbatan qo‘llanilgan, uni o‘rta asrlar turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi deb baholaganlar. Osiyo markazida joylashgan Mavarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergen, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiranigan. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” yoki “Sharq uyg‘onishi” nomi bilan atalib kelinmoqda. Ilk Renessans davrida Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida inqilobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu davrga kelib birinchi kitob nashr etildi, Kolumb tomonidan Amerika kashf qilindi, er sharining sharsimon ekanligi isbotlandi va boshqa bir qator yangiliklar amalga oshirildi. XI asrning boshlarida Xorazmda mashhur “Ma’mun akademiyasi” tashkil qilindi. Bu yerda Beruniy atrofiga o‘sha zamonning bir guruh olimlari, jumladan, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Ibn Iroq, shuningdek, faylasuf Abu Saxl Masihiy, tabib Abul Xayr Hammar va boshqa olimlar ko‘plab ilmiy izlanishlar olib bordilar. Shuningdek, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Ahmad Farg‘oniy, Abu Hamid Usturlobiy, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkir bobolarimizning hayoti va faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topganadolat va adolatparvarlik g‘oyalarda mujassam bo‘ldi. Bu oliy havas Mahmud Zamahshariy va Najmuddin Kubroni uyg‘otdi, ushbu buyuk allomalarining g‘oyalarda, asarlarida o‘z aksini topdi. Bu azaliy intilish Jaloliddin Manguberdini tarbiyladi, uni haqiqiy vatanparvar yovqur bahodirga aylantirdi. [1.B.16.] Bu davrda tabiiyot ilmi, panteistik falsafa bilan birga islom ilohiyoti ham keng rivojlandi.

Muhaddis sifatida butun musulmon olamida mashhur Imom Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, kalom ta'limotining asoschilari Abu Mansur Moturidiy va Burhoniddin al-Marg'inoniy hamda Abu Homid Muhammad al-G'azzoliylar islom dini rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Renessansning ikkinchi bosqichi XV asrlar hisoblanadi. Bu davrda jamiyat taraqqiyotida shaharning o'rni va ahamiyati uzliksiz kuchaydi, yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshladi, kishilarning turmush tarsi tubdan o'zgara boshladi, o'ziga xos yangi madaniyat yaratildi. Ushbu madaniyat nafaqat dinga, balki ilm-fanning ilg'or yutuqlariga tayana boshladi.

Ikkinci Renessans – Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan XV – XVI asrning birinchi yarmi davriga to'g'ri keladi. Temuriylar Renessansi – Ukkinci Uyg'onish davri g'oylari va xalqimizning buniyodkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustivor bo'lган adolatli jamiyat g'oyasida mujassam bo'ldi. Aynan xalq armonini ro'yobga chiqarishga bo'lган intilish Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki qudratli dablat barpo etish, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi. [1.B.17.]

Bu davrda yashab, ijod etgan olim va mutafakkirlar Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Alauddin ali-Ibn Muhammad Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy, mashhur tarixchilar Mirxojd va Xondamir, rassomlar Kamoliddin Behzod va Shoh Muzaffarlarning nomlari dunyoga mashhur bo'lган. Bu davrda davlatni boshqarishda din va tasavvuf qoidalariga alohida e'tibor berildi. Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ta'limotlari ma'naviyat rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilm-fan rivojlantirildi, me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Amir Temur Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda, Bibixonim madrasasini qurdirdi. Keshda ya'ni Shahrisabzda Oqsaroy barpo etildi. Mirzo Ulug'bek davrida Registonda, keyinchalik Buxoro va G'ijduvonda madrasalar, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bekning Falakiyat rasadxonasi qurildi. XIV-XV asrdan boshlab islom madrasalarida mantiq ilmini o'qitish huquq va tilshunoslik fanlari bilan bog'liq holda olib borildi. Buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Uning eng mashhur asari "Ziji jadidi Ko'ragoniy"da 1118 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Ulug'bek quyosh va oy harakatlarini, ularning tutilish vaqtlarini to'g'ri hisoblab chiqqan.

U atrofiga iqtidorli yoshlarni to‘plab, o‘zining ilmiy maktabini yaratdi. Sharq Renessansining ikkinchi davrida yaratilgan falsafiy, badiiy tafakkur rivojining yorqin namunasi Alisher Navoiy ijodida o‘z ifodasini topgan. Sharq renessansi haqida ko‘plab asarlar yozilgan.

Ularda o‘sha davrlarda sharqda islom ilmlari bilan bir qatorda ijtimoiy, tabiiy fanlar ham rivojlangani qayd etilgan. Bunga Shveysariyalik mashhur Sharqshunos Adam Metsning “Musulmon Renessansi” asarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Asar IX-X asrlarda musulmon sharqida yuz bergen madaniy rivojlanishning tarixiga bag‘ishlangan.[3.B.57.]

Renassansni uchinchi bosqichi XVI asrni bosib o‘tdi. Bu davrda kishilarning fiklash madaniyatida gummanistik tamoyillar shakllanib, ijtimoiy mihitga, sodir bo‘laytgan o‘zgarishlarga insonning aqliy imkoniyatlari niqtai nazaridan qarashlar shakllandi, ularning antik madaniy merosga bo‘lgan qiziqishlari kichaydi.Yangi O‘zbekiston fenomeni mamlakatimizning zamonaviy qiyoferini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyatni barpo etish, Uciinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohatlarimizning tayanch g‘oyasini ifoda etadi. Ana shu g‘oya asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari” degan shior ilgari surilaytgani ham bejij emas. [1.B.25.]

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli asarida Yangi O‘zbekistonning zamonaviy demokratik qiyoferi, qanday yaratilaytganligi, mamlakatning yangi rivojlanish bosqichi, belgilab berilgan strategik yo‘l to‘g‘risidagi manbalar berilgan. Su bilan birga asarda Yangi uyg‘onish davri bilan bog‘liq orzu intilishlar, ularni amalga oshirish borasidagi mihim vazifalar tahlil qilingan. Yangi O‘zbekiston mamlakatimizdagи siyosiy, xuquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatni, xalqimizning orzu –intilishlarini, milliy manfatlarini to‘liq himoya qiladi.Yangi demokratik jamiyat barpo etish uchun eng avvalo yangicha fikr yuritish, yangicha ishslash, qattiyatli bo‘lishimizni talab qiladi. Shu o‘rinda qadimgi Yunon faylasufi Suqrotning “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, eng avvalo o‘zini o‘zgartirishi lozim.

Buning uchun aniq maqsad, tolmas iroda va doyimiy izlanish kerak” degan hikmatli iborasi asosiy mezon bo‘lishi kerak.[1.B.8.]

Yangi O‘zbekiston strategiyasi xalqimizning yorug‘ kelajagini, yangilanishga umumiyl maqsadlar sari yahlit ma’naviy asos mezoniga aylanib bormoqda. Yangi O‘zbekiston-barchamizning orzuyimiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusidir. [1.B.15.] Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi-mamlakatimizda kechaytgan keng ko‘lamli jarayonlar bilan uzviy bog‘liq, jonajon Vatanimiz O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish,

yangi demokratik jamiyat qurishdan iboratdir. Yangi O'zbekistonda "Jamiyat islohatlar tashabbuskori" degan yondashuv kundalik faoliyatimizga kirib bormoqda. Bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas, bugungi O'zbekiston - kechagi O'zbekiston emas. Yangi O'zbekistonda xalq manfatlari hamma narsadan ulug‘, xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat degan g‘oyaga amal qiladi. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda "Davlat-inson uchun", "inson-jamiyat-davlat" tamoyillari asosida tashkil etilishi darkor.[1.B.59.]

Shu g‘oyalar asosida mamlakatimizda qonun ustuvorligi ta'minlanmoqda, kishilarni majburiy mehnatga jalb qilish bartaraf etildi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida "Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston" konsepsiyalari haqida aytib, "darvoqe, „yangi“ degan so‘zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko‘hna bayramlarimizdan biri Navro‘z - yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog‘liq qadriyat va an'analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, „Har tuning qadr o‘lubon, har kuning bo‘lsin Navro‘z!“ degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi", - degan qimmatli fikrlarnini ilgari surdi.

Shuningdek, «O‘tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz - „jadidchilik“, ya’ni, yangilanish va erkinlik,adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz». «Bu ulug‘ zotlarning maqsadi - jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg‘or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi», - deb izoh berdi.

«Afsuski, yurtimizda bolsheviklar diktaturasi o‘rnatilgani, chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda davom ettirilgani ma’rifatparvar bobolarimizga o‘z maqsad-muddaolarini to‘liq amalga oshirish imkonini bermadi. Lekin ularning ezgu orzu-niyatlari xalqimizning qon-qonida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz». «Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqr joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „Yangi O'zbekiston“ g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos

solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz», - dedi davlatimiz rahbari. [«газета.uz» 50 545]

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalar kabi Axborot – kutubxonachilik sohasini rivojlanishi, taraqqiyoti, Respublika aholisini axborot bilan ta’minlashi, yangicha yo‘nalishda xizmatlarni tashkil qilishi bugungi kunning muhim vazivasi hisoblanadi. Avvalo Uyg‘onish davrining mohiyati, o‘sha davr mumtoz adabiyotimiz vakillarini, ularning olib borgan harakatlarini, noyob asarlarini xalqimizga etkazishimiz, buning uchun Axborot – kutubxonalarda targ‘ibot ishlarini to‘g‘ri shakllantirishimiz zarur. Ana’naviy va zamonaviy usullar orqali foydalanuvchilarga xizmatni muqobil yo‘llarini izlab topish, ularga bugungi kun Yangi O‘zbekiston strategiyasi mohiyatini ochib berish, Davlatimiz siyosatini anglab etishiga yaqindan yordam berish lozim. Buning uchun Axborot – kutubxona muassasalari sohaga tegishli Qonunlar, qarorlar va farmoyishlar asosida ish rejalarini shakllantirishlari, yillik va strategik ish rejalarida muvoffaqiyatga erishish yo‘llarini oldindan ko‘ra bilishlari, soha mutaxassislarini bor imkoniyatlarini ishga solishlari, ishga yangicha yondashuvni amalga oshirishlari zarur.

Yangi O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholiga Axborot - kutubxona xizmatini ko‘rsatish, kitobxonlar savodxonligini oshirish, istiqlol sharoitida erkin fikrlash ayniqsa, iqtidorli yoshlarni tarbiyalashda kutubxonalar etakchi o‘rinda bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika aholisini Axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2006 yil 20 – iyundaga PQ № 381-sonli Qaroriga muvofiq Axborot-kutubxona markazlari, Axborot –resurs markazlari tashkil etildi. Shuningdek,”2011-2015 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot – kutubxona va axborot-resurs xizmatlarini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi 2011 yil 23 fevralda PQ № 1487- sonli Qaror qabul qilinib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida aholiga sifatli axborot – kutubxona xizmati ko‘rsatishning yangi darajasiga o‘tish va axborot – kutubxona tizmlarini takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, axborot – kutubxona fondini elektron resurslarni shakllantirish maqsadida, 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan Dastur qabul qilindi. Dasturda 2015 yilgacha respublika bo‘yicha bosqichma –bochqich 1815 ta elektron kutubxona va zallarni jihozlash, axborot-kutubxona resurslari fondini 400 mingta elektron formatini yaratish, hamda axborot –kutubxona xodimlarini malakasini va qayta tayyorlash ko‘zda tutilgan. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona qoshida Respublika yig‘ma elektron katolog, Respublika metodik markazlari tashkil etildi.[2.B.6.]

Prezidentimizning 2019 yil 7 iyun PQ 4354-sonli ”O‘zbekiston respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga mivofiq, 2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Konsepsiya barcha axborot-kutubxona muassasalarini samarali muvofiqlashtirish va boshqarish, xalqaro hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari amalga oshirish yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Qarorga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxona bazasida 186 ta tuman (shahar) Axborot-kutubxona markazlari tashkil etish va bir qator muhim masalalarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Yangi tashkil etiladigan Axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari, aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiyon texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish, raqamlashtirish tizimga bosqichma-bosqich o‘tish belgilab berildi. [2.B.8.] 2024 yilga bu Axborot-kutubxona markazlari to‘liq tashkil etilib o‘z faoliyatlarini boshlagan.

Shuningdek qarorda Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Sohani rivojlantirishning ustuvor maqsadlari - fuqorolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlovchi aholiga Axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, kutubxonalarda mavjud milliy-madaniy merosni saqlash, kutubxona sohasini isloh qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish, korporativ tizmlarni rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va boshqa bir qator vazifalar aniq ko‘rsatilgan. Axborot –kutubxona muassasalarini jamlash mexanizmini yaratish, electron va boshqa tashuvchilarda nashrlar haqidagi ma’lumotlar tizmini shakllantirish, milliy axborot – kutubxona tarmog‘ini yaratish, kadrlarni zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish, tayyorlash, malakasini oshirish, yangi xizmatlar - pulli turlarini joriy etish, xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish va jahon axborot –kutubxona hamjamiyatiga kirish yollari ham qarorning mohiyatini tashkil qiladi. Kutubxona fondlarini konservatsiyalash, masofadan turib foydalanish imkoniyatlarini beruvchi yagona axborot - kutubxona portalini yaratish, virtual ma’lumot xizmatlari tizmini modernizatsiyalash, media savodxonlikni yuksaltirish va shu kabilar bugungi kunning dolzarb vazivalari, Yangi O‘zbekiston strategiyasining muhim jihatlari hisoblanadi.

Bugungi taraqqiyot, xususan kommunikatsiya texnologiyalari rivoji imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish, ular kelajak avlod ongini zaharlashiga yo‘l qo‘ymaslik dunyo jamoatchiligi e’tiborida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ham jismonan, ham ma’nan sog‘lom farzandlarni voyaga etkazish, ularning baxtu-saodati, farovon kelajagi uchun hech kimdan kam bo‘lmaydigan shart-sharoit yaratish davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridandir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘z istiqlol va ravnaqi yo‘liga ega davlatning ulkan vazifalarini hayotga joriy eta oladigan, yangicha fikrlay oladigan, yangi texnologiyalar bilan ishlay biladigan, zamonaviy bilim sohalarini chuqur egallab, samarali faoliyat ko‘rsata oladigan, jahon talabi darajasida malakali, yuksak ma’naviyatli, madaniyatli va ma’rifatli yoshlarni tarbiyalash, bilim berish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijod qilish asoslarini rivojlantirishda Axborot-kutubxonalar bor imkoniyatlarini to‘liq foydalanishi, zamonaviy xizmat usullari asosida samarali mehnat qilishlari yangi davr talabidir.

REFERENCES

1. Мирзиёев, Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Ш. Мирзаев.– Тошкент: O‘zbekiston, 2022.– 440 б.
2. Кутубхоначига ёрдам: дайжест / Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси; тузувчи М. Камилова ; мухаррир Д. Мансуров; масъул мухаррир У. Тешабаева. – Тошкент : Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонанаси нашриёти, 2019. – 64 б.
3. Уйғониш даври // Ўзбекистон миллий энциклопедияси 9 - жилд. Тўйчи Ҳофиз – Шаршара / тахрир хайъати: А. Азизхўжаев, Б. Алимов, М. Аминов ва бошқ.– Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005–Б.57–60.

Internet saytlari:

4. www.google.uz
5. «газета.uz» 50 545